

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2021.P.26.02. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**PULATOVA GULNOZA MURODILOVNA**

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA BILINGVIZMNING  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun  
yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on psychological  
sciences**

**Pulatova Gulnoza Murodilovna**

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda bilingvizmning psixologik xususiyatlari.....3

**Пулатова Гулноза Муродиловна**

Психологические особенности билингвизма у учащихся младшего школьного  
возраста .....23

**Pulatova Gulnoza Murodilovna**

Psychological characteristics of bilinguism in small school-age students .....45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

**Списоко опубликованных работ**

**Listof published works.....49**

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2021.P.26.02. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**PULATOVA GULNOZA MURODILOVNA**

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA BILINGVIZMNING  
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi**

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/P650 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mullabayeva Nozima Mahmudjanovna**  
psixologiya fanlari doktori (Dsc), dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Kamilova Nodira Gayratovna**  
psixologiya fanlari doktori, professor

**Miliyeva Muattar G'afforovna**  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: [tdpu\\_kengash@edu.uz](mailto:tdpu_kengash@edu.uz))

Dissertatsiya bilan Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil «\_\_» \_\_\_\_\_ da \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi)

**F.A.Akramova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash raisi, psixologiya fanlari  
doktori (Dsc), professor

**N.B.Atabayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash kotibi, psixologiya fanlari  
doktori (Dsc), professor

**Z.T.Nishanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, psixologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda hozirgi vaqtda ikki tillilik muammolari psixologlar, sotsiologlar va tilshunoslarning e'tiborini tobora ko'proq jalb qilmoqda. Dunyoning ko'p tilli bo'lib borishi va global ko'p madaniyatli makon sharoitida bir nechta tillarni bilish har qanday odamning shubhasiz, afzalligi hisoblanadi, chunki u o'zining kommunikativ ehtiyojlarini to'liq va turli xil faoliyat sohalarida amalga oshirish imkoniga ega bo'ladi. Hozirgi kunda dunyoda ikki tilli insonlar monolingvlarga qaraganda ko'proq. Tadqiqotlarga ko'ra: «Dunyo aholisining qariyb 70 foizi ma'lum darajada ikki yoki undan ortiq tilni biladi. Ularning 50% dan ortig'i millatlararo oilaviy munosabatlar sharoitida tarbiyalangan bolalardir».<sup>1</sup> Bu hodisaning dunyo yirik shaharlarida keskin oshib borishi muammo doirasidagi yangi vazifalarni belgilamoqda va mazkur muammoni ilmiy tadqiq etish zaruratini dolzarblashtiradi.

Jahon oliy ta'lim tashkilotlari va ilmiy-amaliy markazlarida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilingvizmning psixologik xususiyatlari doirasida olib borilgan tadqiqotlarda yer yuzi aholisining yarmi bilingval ekanligi ta'kidlanib kelinadi. Bilingvizimning keng tarqalishiga eng muhim sabab ta'lim va madaniyatdir. Turli millat vakillari o'rtasidagi oilaviy munosabatlar yoki kasbiy imkoniyatlari – demokratiya, biznes, xorijiy jurnalistika, tillarni o'qitish va boshqa holatlar til aloqasining rivojiga olib keladi. Bu fenomen boshqalariga qaraganda ko'proq uchraydi. Bu borada dunyo miqyosida so'nggi yillarda psixologiya va tilshunoslik yo'nalishlari bilingvizm doirasidagi tadqiqotlarga ko'proq e'tibor qaratilayotligi e'tiborga molikdir.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda chet tillarni o'rganishga bo'lgan talabning oshishi sababli bilingvizm keng yoyilib, mazkur masalaning zarur huquqiy - meyyoriy asoslari yaratildi: «..farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala»<sup>2</sup> ekanligi yosh avlod tarbiyasi va ta'lim siyosatidagi ustuvor vazifalarda ta'kidlangan. Ilm fanning zamonaviy bosqichida xorijiy tilni ikkinchi til yoki ona tili sifatida o'zlashtirish nutq kompetensiyasining psixolingvistik tadqiqotlarida til borasida qilinadigan nazariy va amaliy tadqiqotlar uchun zarurdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to'g'risida, 2019-yil 21-oktabrdagi PF 5850-son «O'zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi, 2019-yil 4-oktabrdagi PF-4479-son «O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida» gi qonuni qabulqilinganligining 30 yilligini keng nishonlash to'g'risidagi, 2020-yili 29-oktabirdagi PF-6097-son «Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi

---

<sup>1</sup> <https://rus4chld.pushkininstitute.ru/#/bilingvtest>

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent. O'zbekiston. – 2017. – B. 157-158.

taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish shora-tadbirlari to'g'risida» gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish shora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 984-sonli «Davlat tilini rivojlantirish departamenti to'g'risidagi nizomni tasdiqlash», 2020-yil 20-oktabrdagi PF 6084-sonli «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son «O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qarorlari, 2022-yil 15-noyabrdagi «Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi» ochilish marosimidagi ma'ruzasi hamda boshqa meyyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston olimlaridan M.I.Asqarxo'jayeva, D.R.Babayeva, A.M.Jabborov, G.X.Jumasheva, R.Mirjalilova, M.G'.Miliyeva, Z.T.Nishonova, N.Sh. Nurmuhamedova, G.Salomova, G.Salayeva, A.Sodiqov, Sh.A.Usmonov, R.M.Qodirova, F.R.Qodirova, N.A.Hakimova, M.Hakimov, E.G'.G'oziyev, N.J.Yarasheva, E.T.Shirinova, M.B.Shamsiyeva va boshqalar tadqiqotlarida kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixologik xususiyatlar, bolalardagi nutq jarayonlarini, til hodisalarini belgilovchi omillarni aniqlashga katta e'tibor berdilar. Binobarin, kichik maktab yoshi va til, bilingvizmni o'rganish masalasiga ham muayyan darajada e'tibor qaratilgan bo'lsa ham, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilingvizmning psixologik xususiyatlari masalalari tadqiq etilmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan L.I.Bojovich, O.B.Bajenova, S.K.Bashiyeva, Y.M.Vereshchagin, L.S.Vigotskiy, T.B.Volkova, G.M.Vishnevskiy, Z.R.Doxova, A.A.Zalevskaya, A.B.Karlinskiy, M.Kudrayayeva, B.K.Kotirlo, A.A.Leontiyev, M.N.Mixaylova, D.S.Medvedova, I.L.Medvedeva, E.G.Orshanskaya, S.I.Treskova, E.B.Taskayeva, I.N.Chirsheva va boshqalar tadqiqotlarida bilingvizm xususiyatlarini o'rganishda eng samarali bo'lgan tizimli yondashuv ishlab chiqilgan.

Xorij olimlaridan V.A.Avronin, V.V.Arshavskiy, E.A.Bialistok, U.R.Vaynrx, M.N.Guboglo, Z.M.Dewaile, I.J.Jinkin, U.L.Monrelda, L.Nilyubin, L.A.Petit, E.Pill, V.Y.Rozenvayg, N.V.Imedadze, U.M, A.D.Shvaytser, V.Shecherba E.Xaygen, A.Housen va boshqalar tomonidan bilingvizm, bolalar nutqi, bilingvizmning ta'sir xususiyatlari kabi masalalar turli tillar doirasida o'rganilgan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur

dissertatsion tadqiqot Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishi ALM-202304076-05 raqamli «Milliy neyropsixologingvistik tashxislash metodikasini yaratish» mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan (2023–2025 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilingvizmning psixologik xususiyatlarini o'rganish hamda ikki tillilikning bilish jarayonini rivojlanishiga ta'siri bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning noverbal intellekti va ijodiy tafakkurining rivojlanishiga bilingvizm ta'sirini empirik jihatdan dalillash.

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilingvizmning diqqat xususiyatlari va xotira jarayonining rivojlanishiga ta'sirini asoslash.

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning shaxslararo munosabatlariga bilingvizm ta'sirini asoslash.

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning kognitiv jarayonlari va shaxslararo munosabatlarini rivojlantiruvchi dastur va maktab o'qituvchilari, ota-onalar uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilingvizmning psixologik xususiyatlarini tahlil qilish jarayoni olingan bo'lib, Farg'ona shahar 6-sonli va 9-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarida tahsil olayotgan 9-10 yoshli kichik maktab yoshidagi o'quvchilardan 205 nafari respondentlar sifatida tadqiqotga jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmetini** kichik maktab yoshidagi monolingval va bilingval o'quvchilarning noverbal intellekti, ijodiy tafakkuri, diqqat, xotira jarayonlari hamda o'quvchilarning shaxslararo munosabati sohasini idrok qilish jarayonidagi psixologik holatini o'rganish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida J.Ravenning "Progressiv matritsalar" intellektning noverbal imkoniyatlarini o'lchash usuli, J.Gilfordning modifikatsiya qilingan ijodiy tafakkurni aniqlash metodikasi, R.Meylining ikki bosqichli, ya'ni ko'rish va eshitish xotirasini o'rganish metodikasi, Valter Shultening diqqat sifatlarini tekshirishda «Shulte jadvallari» metodikasi, Rine Jilyaning bolalarning shaxslararo munosabati sohasini va uning oila ichidagi o'zaro munosabatlarni idrok qilishini tekshirish proyektiv metodikalaridan foydalanilgan. Tadqiqotda olingan natijalarning ishonchliligi matematik-statistik metodlardan chastotalar tahlili, Kolmogorov-Smirnov mezon, Manni-Uitni U-mezon, Kruskal-Uollis H-mezon hamda Spirmen noparametrik korrelyatsion tahlil mezon orqali tasdiqlandi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilingvizmning psixologik xususiyatlariga ko'ra elementlarni farqlay olish, predmetga nisbatan takrorlanmas so'zlarni ko'plab ishlatish, bir xil bo'g'inlardan boshlanuvchi yoki tugallanuvchi so'zlarni topish, bir xil tasvirdagilarni har xil shaklga aylantira olish ko'nikmalarini namoyon bo'lishidagi differentsial farqlarga asoslanib verbal assotsiatsiya lingvistik sezitivlik orqali ijodiylikni faollashtiruvchi determinant ekanligi aniqlangan;

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilingvizmning ifodalanishi irodaviy sifatlarni vazifaga safarbar qilish orqali diqqat kuchini oshirish, bir vaqtning o'zida

katta hajmdagi matni idrok qila olish ko'nikmalarini rivojlanishi bilan bog'liqligiga ko'ra til o'rganishga nisbatan senzitivlikning ko'rgazmali-obrazli xotira asosida lingvistik qobiliyatlarda namoyon bo'lishiga identiv ekanligi dalillangan;

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning shaxslararo munosabatlariga bilingvizmning ta'siriga ko'ra bola tomonidan ota-ona juftligini idrok qilinishi noverbal signallarni anglash, tushunish, bobo-buvilarga qadriyatlarga muvofiq munosabatda bo'lish esa so'z boyligini ortishiga olib kelganligi tufayli verbal intellektning ijtimoiy determinantlari avlodlar orasidagi sintonik muloqot asosida ochib berilgan;

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning kognitiv jarayonlari va konstruktiv shaxslararo munosabatlarini rivojlantirishda monolingval bolalarning noverbal intellekti, ijodiy tafakkuriga hamda bilingval bolalarning do'sti (dugonasi)ga, o'qituvchiga (yoki boshqa bir katta yoshdagi obro'li kishiga) nisbatan munosabatlariga korreksion ta'sir ko'rsatish muhimligiga ko'ra nutq faoliyatining gnostik xususiyatlarini kollaborativ kompetentsiyalar orqali shakllanishini ta'minlash zarurligi dalillangan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilingvizmning psixologik xususiyatlari aniqlangan va tadqiqot natijalari asosida tavsiyalar ishlab chiqilgan;

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda kognitiv jarayonlar va shaxslararo munosabatlarni mustahkamlashga ko'maklashuvchi rivojlantiruvchi dastur ishlab chiqilgan va amaliyotga kiritilgan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi:** tadqiqot obyektlarining maqsadga mos tanlanganligi, ilmiy tekshirishlarda qatnashgan respondentlarning reprezentivligi, tanlangan metodikalarning validligi va ishonchliligi, olingan emperik natijalarning matematik-statistikaning ishonchli usullar yordamida tahlil qilinganligi, izlanishlar aniq va reja bosqichlarda bir-birini to'ldiruvchi usullar yordamida amalga oshirilganligi, tadqiqot davomida shakllantirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etish, kontent tahlil, T-mezone va ma'lumotlarni qayta ishlash SPSS dasturi vositasida asoslanganligi, ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, nutq va til o'rganish bilan bog'liq jarayonlarni rivojlantirish va metodik tavsiyalar sifatida xizmat qilish imkoniyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyati samaradorligini ta'minlovchi o'quv-uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqish, «Umumiy psixologiya», «Ontogenez psixologiyasi», «Rivojlanish va pedagogik psixologiya», «Muloqot psixologiyasi», «Eksperimental psixologiya», «Psixolingvistika» fanlari bo'yicha o'quv materiallari sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilingvizmning psixologik xususiyatlari yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilingvizmning psixologik xususiyatlariga ko'ra elementlarni farqlay olish, predmetga nisbatan takrorlanmas so'zlarni ko'plab ishlatish, bir xil bo'g'inlardan boshlanuvchi yoki tugallanuvchi so'zlarni topish, bir xil tasvirdagilarni har xil shaklga aylantira olish ko'nikmalarini namoyon bo'lishidagi differensial farqlarga asoslanib verbal assotsiatsiya lingvistik senzitivlik orqali ijodiylikni faollashtiruvchi determinant ekanligi aniqlangan ma'lumotlar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025 yil 23-avgustdagi PM-437 son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiyasi» moduliga kiritilgan. (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 20-avgustdagi PM-437a-son ma'lumotnomasi). Natijada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilingvizmning psixologik xususiyatlari aniqlashtirilgan;

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilingvizmning ifodalanishi irodaviy sifatlarni vazifaga safarbar qilish orqali diqqat kuchini oshirish, bir vaqtning o'zida katta hajmdagi matnni idrok qila olish ko'nikmalarini rivojlanishi bilan bog'liqligiga ko'ra til o'rganishga nisbatan senzitivlikning ko'rgazmali-obrazli xotira asosida lingvistik qobiliyatlarda namoyon bo'lishiga identiv ekanligi dalillangan takliflar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 23-avgustdagi PM-437-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiyasi» moduliga kiritilgan. (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 20-avgustdagi PM-437a-son ma'lumotnomasi). Natijada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilingvizmning ifodalanishidagi psixologik xususiyatlar aniqlashtirilgan;

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning shaxslararo munosabatlariga bilingvizmning ta'siriga ko'ra bola tomonidan ota-ona juftligini idrok qilinishi noverbal signallarni anglash, tushunish, bobo-buvilarga qadriyatlarga muvofiq munosabatda bo'lish esa so'z boyligini ortishiga olib kelganligi tufayli verbal intellektning ijtimoiy determinantlari avlodlar orasidagi sintonik muloqot asosida ochib berilgan takliflar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025 yil 23-avgustdagi PM-437 son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiyasi» moduliga kiritilgan. (O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 20-avgustdagi PM-437a-son ma'lumotnomasi). Natijada kichik maktab yoshidagi bilingval o'quvchilarning shaxslararo munosabatlariga bilingvizmning ta'siriga ko'ra verbal intellektning ijtimoiy determinantlari yoritib berilgan;

kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning kognitiv jarayonlari va konstruktiv shaxslararo munosabatlarini rivojlantirishda monolingval bolalarning noverbal intellekti, ijodiy tafakkuriga hamda bilingval bolalarning do'sti (dugonasi)ga, o'qituvchiga (yoki boshqa bir katta yoshdagi obro'li kishiga) nisbatan munosabatlariga korreksion ta'sir ko'rsatish muhimligiga ko'ra nutq faoliyatining gnostik xususiyatlarini kollaborativ kompetentsiyalar orqali shakllanishini ta'minlash zarurligi dalillangan takliflar O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025 yil 23-avgustdagi PM-437-son buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiyasi»

moduliga kiritilgan.(O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 20-avgustdagi PM-437a-son ma‘lumotnomasi). Natijada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning kognitiv jarayonlari va konstruktiv shaxslararo munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan dastur ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama etilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, amaliy tavsiyalar, adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Tadqiqot ishining hajmi ilovalardan tashqari 144 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, o‘rganilganlik darajasi, ishning maqsad va vazifalari, obykti, predmeti, metodlari, himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar, ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati bayon etilgan.

Birinchi bob «**Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda bilingvizm muammosining o‘rganilishi**» deb nomlangan bo‘lib, psixologik tadqiqotlarda bilingvizm tushunchasi, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda bilingvizmning psixologik xususiyatlarini o‘rganilishining zarurati va dolzarbligi batafsil keltirilgan. Jumladan, kichik maktab yoshi psixologik xususiyatlari va bilingvizm masalasi Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi hamda G‘arb psixologlari, O‘zbek olimlari tomonidan o‘rganilganligi batafsil yoritib berilgan.

Xorij olimlaridan V.A.Avronin, V.V.Arshavskiy, E.A.Bialistok, U.R.Vaynrx, M.N.Guboglo, Z.M.Dewaile, I.J.Jinkin, U.L.Monrelda, L.Nilyubin, L.A.Petit, E.Pill, V.Y.Rozenvayg, N.V.Imedadze, U.M, A.D.Shvaytser, V.Shecherba E.Xaygen, A.Housen va boshqalar tomonidan bilingvizm, bolalar nutqi, bilingvizmning ta‘sir xususiyatlari kabi masalalar turli tillar doirasida o‘rganilganligi berilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari psixolog olimlaridan L.I.Bojovich, O.B.Bajenova, S.K.Bashiyeva, Y.M.Vereshchagin, L.S.Vigotiskiy, T.B.Volkova, G.M.Vishnevskiy, Z.R.Doxova, A.A.Zalevskaya, A.B.Karlinskiy, M.Kudrayayeva, B.K.Kotirlo, A.A.Leontiyev, M.N.Mixaylova, D.S.Medvedova, I.L.Medvedeva, E.G.Orshanskaya, S.I.Treskova, E.B.Taskayeva, I.N.Chirsheva va boshqalar tadqiqotlarida bilingvizm xususiyatlarini o‘rganishda eng samarali bo‘lgan tizimli yondashuvlar bayon qilingan.

O‘zbekiston olimlaridan M.I.Asqarxo‘jayeva, D.R.Babayeva, A.M.Jabborov, G.X.Jumasheva, R.Mirjalilova, M.G‘.Miliyeva, Z.T.Nishonova, N.Sh.Nurmuhamedova, G.Salomova, G.Salayeva, A.Sodiqov, Sh.A.Usmonov, R.M.Qodirova, F.R.Qodirova, N.A.Hakimova, M.Hakimov, E.G‘.G‘oziyev, N.J.Yarasheva, E.T.Shirinova, M.B.Shamsiyeva va boshqalar tadqiqotlarida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar psixologik xususiyatlari, bolalardagi nutq jarayonlarini, til hodisalarini belgilovchi

omillar yoritilgan.

Zamonaviy psixologik-pedagogik fanda bilingvizm fenomeni lingvistik, psixologik, ijtimoiy-madaniy va kognitiv komponentlarni birlashtiruvchi ko'p qirrali hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Bunda rivojlanishning senzitiv davrlarida ikki tillilikni shakllantirish mexanizmlarini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu ikkinchi tilni o'zlashtirishning muvaffaqiyati yosh xususiyatlari va ta'lim jarayonini tashkil etish o'ziga xosligi bilan o'zaro bog'liqligini ko'rsatuvchi ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotlar bilan aniqlanadi.

Globalashuv muhitdagi ta'lim konteksti, shuningdek, ushbu sohadagi fundamental tadqiqotlarning yetishmasligi boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv va shaxsiy rivojlanishini hisobga olgan holda bilingvizm rivojlanishining psixologik jihatlarini yanada chuqurroq va batafsil o'rganish zaruriyatini dolzarblashtiradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilingvizm muammosining emperik o'rganilishi**» deb nomlanib, ushbu bobda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilingvizm hodisasining kognitiv jarayonlariga ta'siri boyicha nazariy bilimlar keltirilgan. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilingvizmni o'rganish tadqiqot doirasidagi metodikalar va ularning birlamchi tahlili yoritilgan. Mazkur bobda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilingvizmning jins tafovutlarini empirik o'rganish uchun dastlabki diagnostik ishlar hamda kichik maktab yoshidagi monolingval va bilingval o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirish darajasi ko'rsatkichlari bo'yicha natijalar tahlili bayon etilgan.

Tadqiqotda J.Gilford metodikasi bo'yicha jins tafovutlari olingan. Kichik maktab yoshidagi qiz bolalar va o'gil bolalarning ijodiy tafakkuri aniqlangan. Gender farqlar natijalari 1-jadvalda berilgan.

### 1-jadval

#### J.Gilford metodikasi shkalalarining ko'rsatkichlari bo'yicha gender tafovutlari natijalari (Mann-Uitni U mezon)

Ko'rsatgichlar	Jinsi (O'rtacha ranglar)		U	p
	Qiz bolalar (n=91)	O'g'il bolalar (n=114)		
So'zlarni ishlatish	107,60	99,32	4768,000	0,315
Vaziyatlarning natijasi	110,97	96,64	4462,000	0,070
So'zlar	110,22	97,24	4530,000	0,119
Ko'rsatish	101,96	103,83	5092,500	0,811
So'zlar assotsiatsiyasi	113,37	94,72	4243,000	0,023*
Tasvir yasash	115,13	93,32	4083,000	0,008**
Eskizlar	114,01	94,21	4185,000	0,017*
Berkutilgan shakl	110,27	96,24	4434,000	0,087

Izoh: \* -  $p \leq 0.01$ .

So'zlar assotsiatsiyasi shkalasi tahlil qilinganda qiz bolalar va o'g'il bolalar natijalari o'rtasida ishonchli farqlar kuzatildi. ( $U=4243,000$ ;  $p \leq 0,05$ ). Qiz bolalarda o'g'il bolalarga nisbatan hamma ishlatadigan so'zga ko'proq tushunchalarni keltirib o'tish yo'qori ekanligi aniqlandi. Tasvir yasash shkalasi tahlil qilinganda qiz bolalar

va o'g'il bolalar natijalari o'rtasida ishonchli farqlar kuzatildi. ( $U=4083,000$ ;  $p\leq 0,05$ ). Qiz bolalarda o'g'il bolalarga nisbatan ma'lum bir shakllardan foydalanib aniq obyektни yasash yuqori ekanligi aniqlandi. Qiz bolalarda shakllarni takrorlanmas tarzda joylashtirish ko'roq kuzatilar ekan. Eskizlar shkalasi tahlil qilinganda, qiz bolalar va o'g'il bolalar natijalari o'rtasida ishonchli farqlar kuzatildi. ( $U=4185,000$ ;  $p\leq 0,05$ ). Qiz bolalarda o'g'il bolalarga nisbatan bir xil tasvirdagilarni har xil shaklga aylantirish yuqori ekanligi o'rganildi. Qiz bolalarda o'g'il bolalarga nisbatan suratlarning tasniflarini ko'proq ifodalash yuqori ekanligi kuzatildi.

Tadqiqotda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning 3-4-sinf fanlarini o'zlashtirish darajasi ko'rsatkichlari bo'yicha ham o'rganishni va monolingval hamda bilingval o'quvchilarning natijalari tahlil etildi. Bunda o'quvchilarning 3-4-sinfida ta'lim olgan ingliz tili, matematika, ona tili (rus tili), rus tili fanlaridan olgan baholari va umumiy o'zlashtirish foizlari bo'yicha monolingval hamda bilingval o'quvchilar o'rtasidagi o'xshash va farqli xususiyatlari 2-jadvalda berilgan.

## 2-jadval

### Monolingval va bilingval o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha natijalari (Mann-Uitni U mezon)

Ko'rsatkichlar	O'qitiladigan ona tili (O'rtacha ranglar)		U	p
	monolingval (n=80)	bilingval (n=125)		
Ingliz tili	75,43	80,42	2696,00	0,468
Matematika	74,65	80,91	2649,00	0,337
<b>Ona tili</b>	<b>87,04</b>	<b>73,16</b>	<b>2367,50</b>	<b>0,038*</b>
Rus tili	86,06	76,41	224,500	0,114
O'rtacha baho	81,64	74,24	2471,50	0,543

Izoh: \* -  $p\leq 0,05$

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari tahlil qilinganda, ona tili, ya'ni bir tilli sinflarda o'zbek tili ikki tilli sinflarida rus tili fanini o'zlashtirishda ishonchli farqlar kuzatildi ( $U=2367$ ;  $p\leq 0,05$ ). Monolingval o'quvchilarning ona tili fanini o'zlashtirishi bilingval o'quvchilarning ona tili (rus tili) fanini o'zlashtirishiga qaraganda yuqori ekanligi aniqlandi. Bilingval o'quvchilarda ikkinchi til ko'nikmalari to'liq shakllanmaganligi sababli ona tili (rus tili) fanini o'zlashtirish boshlang'ich sinflarda murakkab bo'lishi kuzatildi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilingvizmning psixologik xususiyatlarini o'rganish asosida respondentlarning kognitiv jarayonlari o'rtasida gender farqlar mavjudligi aniqlandi. Bunda qizlar so'z assotsiatsiyalari, tasvirlarni yaratish va o'zgartirish, shuningdek vizual kreativlikda yuqori ko'rsatkichlarni namoyish etdilar. Bilingval o'quvchilar monolingval o'quvchilarga nisbatan ta'limning boshlang'ich bosqichlarida rus tilini o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, biroq boshqa fanlar bo'yicha sezilarli farqlar aniqlanmadi. Bu esa, bilingvizmning umumiy o'zlashtirishga salbiy ta'siri yo'qligini ko'rsatadi. Natijalar ta'limda gender xususiyatlari va o'quvchilarning til maqomini hisobga olgan holda differentsial yondashuvning, shuningdek, ta'limning boshlang'ich bosqichlarida til

ko'nikmalarini o'zlashtirishda qo'shimcha qo'llab-quvvatlashning zarurligini ta'kidlaydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda bilingvizm rivojlanishining o'ziga xos jihatlari**» deb nomlanib, o'zbek va rus sinflaridagi o'quvchilardan olingan metodikalarning tahlil natijalari, monolingval va bilingval o'quvchilarning psixologik tafovut natijalarining empirik tahlili, olingan metodikalar o'rtasidagi bog'liqlik tafovutlari, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda kognitiv jarayonlar va shaxslararo munosabatlarni mustahkamlashga ko'maklashuvchi rivojlantiruvchi dasturning tavsifi yoritilgan.

«O'zbek va rus sinflaridagi olingan metodikalarning tahlil natijalari» deb atalgan uchinchi bobning birinchi bo'limida o'zbek va rus sinflaridagi psixologik tafovutlar aniqlandi. J.Ravenning «Progressiv matritsalarini» intellektning noverbal imkoniyatlarini o'lchash usulining tadqiqot natijalari 3-jadvalda berilgan.

### 3-jadval

#### J.Raven metodikasi ko'rsatkichlari bo'yicha natijalari (Mann-Uitni U mezon)

Ko'rsatkichlar	O'qitiladigan ona tili (O'rtacha ranglar)		U	p
	o'zbek (n=81)	rus (n=122)		
Raven metodikasi	84,76	113,45	3544,500	0,000**

Izoh: \*\* -  $p \leq 0.01$ .

Natijalardan ko'rindiki, J.Raven metodikasining natijalarida ishonch darajasidagi tafovutlar aniqlandi ( $U=3544,500$ ;  $p \leq 0,01$ ). Rus tilida o'qitiladigan o'quvchilar natijalarida intellekt ko'rsatkichlarini yuqori ekanligi aniqlandi. O'quvchilarning intellekti ikki tilda so'zlashish holatlariga bevosita bog'liq bo'lar ekan. Demak, o'quvchilarda birinchi tili rus tili bo'lgan o'quvchilarda noverbal tafakkur ko'rsatkichlari birinchi tili o'zbek tili bo'lgan sinalluvchilarga nisbatan yuqori bo'lishi aniqlandi.

### 4-jadval

#### J.Gilford metodikasi shkalalarining ko'rsatkichlari bo'yicha o'qitiladigan ona tillari aniqlash natijalari (Mann-Uitni U mezon)

Ko'rsatkichlar	O'qitiladigan ona tili (O'rtacha ranglar)		U	p
	o'zbek (n=81)	rus (n=122)		
So'zlarni ishlatish	108,50	97,68	4414,500	0,194
Vaziyatlarning natijasi	98,10	104,59	4625,500	0,416
So'zlar	77,23	118,44	2935,000	0,000**
Ko'rsatish	97,56	104,95	4581,00	0,349
So'zlar assotsiatsiyasi	100,69	102,87	4835,00	0,793
Tasvir yasash	90,49	109,64	4008,500	0,020*
Eskizlar	89,33	110,41	3914,500	0,012*
Berkutilgan shakl	68,65	123,49	2239,500	0,000**

Izoh: \* -  $p \leq 0.05$ ; \*\* -  $p \leq 0.01$

Tadqiqotda J.Gilford metodikasi shkalalarining ko'rsatkichlari 4-jadvalda ko'rib chiqildi.

J.Gilford metodikasining «So'zlar» shkalasida o'qitiladigan ona tillari o'zbek tili bo'lgan va o'qitiladigan ona tillari rus tili bo'lgan o'quvchilarning tadqiqot natijalarida ishonchli farqlar kuzatildi. Bir xil bo'g'inlardan boshlanuvchi yoki tugallanuvchi so'zlarni topish rus sinfida o'qiydigan o'quvchilarda o'zbek sinfida o'qiydigan o'quvchilarga qaraganda yuqori ekanligi kuzatildi. ( $U=2935$ ;  $p\leq 0,01$ ). Rus sinfi o'quvchilarida so'z boyligi ko'proq ekanligi aniqlandi. Aksariyat rus guruhida o'qiyotgan o'quvchilar o'zbek millatiga mansub hisoblanadi, ulardagi so'z boyligini ko'p bo'lishiga ikki tilni bilishi sabab bo'lgan.

«Tasvir yasash» shkalasida o'qitiladigan ona tillari o'zbek tili bo'lgan va o'qitiladigan ona tillari rus tili bo'lgan o'quvchilarning tadqiqot natijalarida ishonchli farqlar kuzatildi ( $U=4008$ ;  $p\leq 0,005$ ). Ma'lum bir shakllardan foydalanib, aniq obyektni yasash rus sinfida o'qiydigan o'quvchilarda o'zbek sinfida o'qiydigan o'quvchilarga qaraganda yuqori ekanligi kuzatildi. Aksariyat holatlarda rus sinfida o'qiyotgan o'quvchilarning ota-onalari farzandlarini ta'limiga alohida e'tibor qaratadilar va buning natijasida ulardagi ijodkorlik xususiyatlari yuqori bo'lishi aniqlandi.

«Eskizlar», «Berkitilgan shakl» shkalalarida o'qitiladigan ona tillari o'zbek tili bo'lgan va o'qitiladigan ona tillari rus tili bo'lgan o'quvchilarning tadqiqot natijalarida ishonchli farqlar kuzatildi. ( $U=3914$ ;  $p\leq 0,05$ ) ( $U=2239$ ;  $p\leq 0,01$ ). Bir xil tasvirdagilarni har xil shaklga aylantirish, tasvirdagi kichik shakllarni topish rus sinfida o'qiydigan o'quvchilarda o'zbek sinfida o'qiydigan o'quvchilarga qaraganda yuqori ekanligi kuzatildi.

Keyingi tadqiqot V.Shultening diqqat barqarorligini o'rganish metodikasi shkalalarining ko'rsatkichlari bo'yicha monolingval va bilingval o'quvchilar natijalari tahlil qilinadi. Bunda diqqat xususiyatlarini aniqlash bo'yicha monolingval va bilingval o'quvchilar o'rtasidagi tafovutlar ma'lumotlari 5-jadvalda berilgan.

### 5-jadval

#### V.Shulte metodikasi shkalalarining ko'rsatkichlari bo'yicha biladigan ikkinchi til aniqlash natijalari (Mann-Uitni U mezon)

Ko'rsatgichlar	biladigan ikkinchi til (O'rtacha ranglar)		U	p
	Monolingval (n=81)	Bilingval (n=122)		
Shulte 1	103,87	102,43	4951,500	0,865
Shulte 2	90,54	111,14	4013,000	0,015*
Shulte 3	92,75	109,70	4191,500	0,045*
Shulte 4	93,56	109,17	4257,000	0,065

Izoh: \* -  $p\leq 0.05$

Ushbu tadqiqotda Shultening diqqat barqarorligini o'rganish metodikasi shkalalarining ko'rsatkichlari bo'yicha monolingval va bilingval o'quvchilar natijalarini tahlil qilindi. V.Shulte metodikasining 2-3-shkalalarining ko'rsatkichlari bo'yicha, monolingval va bilingval o'quvchilar natijalari o'rtasida ishonchli farqlar kuzatildi ( $U=4013$ ;  $p\leq 0,05$ ). ( $U=4191$ ;  $p\leq 0,05$ ). O'quvchilar irodaviy sifatlarini

vazifaga safarbar qilish orqali diqqatining kuchini oshirish, chidamlilik sifatini shakllantirish orqali tashqi ta'sirlarga chalg'imaslik bilingval o'quvchilarda monolingval o'quvchilarga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Matnni yaxlit ko'rish orqali tez o'qish ko'nikmasiga ega bo'lish, bir vaqtning o'zida katta hajmdagi matnni idrok qila olish ko'nikmalarini rivojlantirish til ko'nikmalariga bog'liqligi kuzatildi.

Keyingi tadqiqot Rene Jilya metodikasi shkalalarining ko'rsatkichlari bo'yicha monolingval va bilingval o'quvchilar natijalari tahlil qilindi. Bunda o'quvchilarning shaxslararo munosabati sohasini va uning oila ichidagi o'zaro munosabatlarini idrok qilishini aniqlash bo'yicha monolingval hamda bilingval o'quvchilar o'rtasidagi tafovutlar ma'lumotlari 6-jadvalda berilgan.

### 6-jadval

#### Rene Jilya metodikasi shkalalarining ko'rsatkichlari bo'yicha biladigan ikkinchi til aniqlash natijalari (Mann-Uitni U mezoni)

Ko'rsatkichlar	biladigan ikkinchi til (O'rtacha ranglar)		U	p
	monolingval(n=81)	bilingval(n=122)		
onaga bo'lgan munosabat	110,02	98,41	4453,000	0,169
otaga bo'lgan munosabat	96,27	107,40	4476,500	0,185
ota va onaga, oilaviy juftga bo'lgan munosabat	105,46	101,39	4822,500	0,627
aka-uka va opa-singillarga bo'lgan munosabat	102,41	103,39	4974,000	0,907
buvi va buvaga bo'lgan munosabat	96,97	106,94	4533,500	0,228
Do'sti (dugonasi)ga bo'lgan munosabat	113,43	96,19	4177,500	0,039*
o'qituvchiga (yoki boshqa bir katta yoshdagi obro'li kishiga) munosabat	114,38	95,57	4100,500	0,023*
Qiziquvchanlikdarajasi	111,22	97,63	4356,500	0,104
Xukmronlikka intilish	117,26	93,69	3867,000	0,004**
O'zini chetga tortish	117,15	93,75	3875,500	0,004*
Xulq atvorning ijtimoiy o'xshashlik darajasi	121,67	90,80	3509,500	0,000**

Izoh: \* -  $p \leq 0.05$ ; \*\* -  $p \leq 0.01$

Navbatdagi Rene Jilya metodikasining «Do'sti (dugonasi)ga bo'lgan munosabat», o'qituvchiga (yoki boshqa bir katta yoshdagi obro'li kishiga) munosabat shkalalarida monolingval va bilingval o'quvchilarning tadqiqot natijalarida ishonchli farqlar kuzatildi ( $U=4177; p \leq 0,05$ ), ( $U=4100; p \leq 0,05$ ). Do'sti (dugonasi)ga bo'lgan munosabat, o'qituvchiga (yoki boshqa bir katta yoshdagi obro'li kishiga) munosabat monolingval o'quvchilarda bilingval o'quvchilarga qaraganda yuqori ekanligi kuzatildi. Monolingval o'quvchilarda bola shaxsining rivojlanishiga imkon beradigan bolaning do'st va dugonalarga, katta yoshdagi odamga yaqinligini, unga

emotsional mehr qo'yishining yuqori ekanligini ko'rsatmoqda.

«Hukmronlikka intilish» va «O'zini chetga tortish» shkalasida monolingval va bilingval o'quvchilarning tadqiqot natijalarida ishonchli farqlar kuzatildi ( $U=117,26$ ;  $p \leq 0,01$ ) ( $U=3875$ ;  $p \leq 0,01$ ). Yetakchilik holatida xarakterlanadigan yetakchilik sifatlari va voqealar markazidan yiroqlik monolingval o'quvchilarda bilingval o'quvchilarga qaraganda yuqori ekanligi kuzatildi. «Xulq-atvorning ijtimoiy o'xshashlik darajasi» shkalasi bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijalari guruhlar o'rtasida statistik jihatdan ishonchli tafovut mavjudligini ko'rsatdi ( $U = 3509$ ;  $p \leq 0,01$ ). Jumladan, monolingv ishtirokchilarda boshqalarning xulq-atvoriga taqlid qilish darajasi bilingv ishtirokchilarga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Olingan natijalar bilingv shaxslarda boshqalarga o'xshashlikka intilish nisbatan pastroq bo'lishi bilan tavsiflanishini ko'rsatadi.

Tadqiqotlarning keyingi bosqichida metodikalar o'rtasidagi bog'liqlik qonuniyatlari tahlil qilindi. Rine Jilya va Gilford metodikasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqliklar bo'yicha natijalar 7-jadvalda berilgan.

### 7-jadval

#### Rene Jilya va J.Gilford metodikasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqliklar (Spirmen mezoni)

	So'zlarni ishlatish	Vaziyatlar ni natijasi	So'zlar	Ko'rsa-tish	So'zlar assotsiat siyasi	Tasvir yasash	Eskizlar	Berkiti lgan shakl
onaga bo'lgan munosabat	0,066	0,032	0,054	-0,008	0,059	0,049	0,045	0,001
otaga bo'lgan munosabat	0,192(**)	-0,146(*)	0,132	0,015	0,019	-0,004	-0,051	0,023
ota va onaga, oilaviy juftga bo'lgan munosabat	0,067	-0,037	0,012	-0,019	0,025	-0,013	0,138(*)	0,020
aka-uka va opa-singillarga bo'lgan munosabat	-0,096	-0,002	-0,070	-0,073	-0,115	0,038	-0,075	-0,010
buvi va buvaga bo'lgan munosabat	0,075	-0,034	0,182(**)	-0,082	0,019	-0,006	0,106	0,087
Do'sti (dugonasi)ga bo'lgan munosabat	-0,065	0,041	-0,097	0,086	0,061	0,018	-0,069	-0,048
o'qituvchiga (yoki boshqabir katta yoshdagi obro'li kishiga) munosabat	0,089	-0,038	-0,071	0,013	0,004	0,019	-0,132	-0,110
Qiziquvchanlikdarajasi	-0,027	-0,127	-0,110	-0,010	-0,023	-0,049	-0,128	-0,082
Hukmronlikka intilish	0,087	0,003	-0,094	0,074	-0,063	-0,062	-0,189(**)	-0,188(**)
O'zini chetga tortish	-0,191(**)	-0,152(*)	-0,169(*)	-0,052	-0,153(*)	-0,154(*)	0,023	-0,080
Xulq atvorning ijtimoiy o'xshashlik darajasi	-0,032	-0,019	-0,019	-0,120	-0,113	0,023	-0,031	-0,127

Izoh: \* -  $p \leq 0,05$ ; \*\* -  $p \leq 0,01$

O'quvchilarning Rine Jilya metodikasida «Otaga bo'lgan munosabat» shkalasi va Gilfordning «So'zlarni ishlatish» shkalasida korrelyatsion natija ( $r=0,192$ ;  $p\leq 0,05$ ) bo'lib, ularning orasida ishonchli bog'liqlik aniqlandi. O'quvchilarning otaga bo'lgan munosabatining yuqoriligi ularda so'z boylini oshishiga sabab bo'larkan. Otalarning farzandlari bilan ko'proq munosabat o'rnatishi bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishi tadqiqot natijalarida o'z isbotini topdi.

«Otaga bo'lgan munosabat» shkalasi va «Vaziyatlarning natijasi» shkalasining korrelyatsion natijasi ( $r=-0,146$ ;  $p\leq 0,05$ ) bo'lib, ularning orasida ishonchli bog'liqlik aniqlandi. Mazkur natija farzandlarning otaga nisbatan munosabati yuqori bo'lgan hollarda o'quvchilarda fantaziya ko'rsatkichlarining nisbatan pastroq darajada namoyon bo'lishi bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

«Ota va onaga, oilaviy juftga bo'lgan munosabat» shkalasi va «Eskizlar» shkalasining korrelyatsion natijasi ( $r=0,138$ ;  $p\leq 0,05$ ) bo'lib, ularning orasida ishonchli bog'liqlik aniqlandi. Ushbu natija o'quvchilarning ota-onani yagona oilaviy juft sifatida qabul qilishi noverbal ijodkorlik ko'rsatkichlarining nisbatan yuqori darajada namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Shu asosda, oilada ota-onalar o'rtasidagi inoqlik va o'zaro munosabatlarning ijobiy xarakterga ega bo'lishi farzandlarning yuqori darajadagi tafakkur va ijodiy salohiyatga ega shaxs sifatida shakllanishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri ekanligini ta'kidlash mumkin.

«Buvi va buvaga bo'lgan munosabat» va «So'zlar» shkalasining korrelyatsion natijasi ( $r=0,182$ ;  $p\leq 0,01$ ) bo'lib, ularning orasida ishonchli bog'liqlik aniqlandi. O'quvchilarning buvi va buvaga bo'lgan munosabatning yuqoriligi o'quvchilarning so'z boyligini oshishiga sabab bo'larkan. Shuningdek, o'quvchilarning buvi va buvalar bilan muntazam va mazmunli muloqotda bo'lishi ijtimoiy-madaniy qadriyat sifatida namoyon bo'lib, bu holat farzandlarning intellektual rivojlanish darajasining yuqoriligi bilan uzviy bog'liq ekanligi aniqlandi.

«Hukmronlikka intilish» va «Eskizlar» shkalasining korrelyatsion natijasi ( $r=-0,189$ ;  $p\leq 0,01$ ) bo'lib, ularning orasida ishonchli bog'liqlik aniqlandi. O'quvchilarning hukmronlikka intilishining yuqori bo'lishi bir xil tasvirdagilarni har xil shaklga aylantirish, ya'ni ijodkorlik qobiliyatining pasayib borishi bilan kuzatildi. «Hukmronlikka intilish» va «Berkutilgan shakl» shkalasining korrelyatsion natijasi ( $r=-0,188$ ;  $p\leq 0,01$ ) bo'lib, ularning orasida ishonchli bog'liqlik aniqlandi. O'quvchilarning hukmronlikka intilishining yuqori bo'lishi tasvirdagi kichik shakllarni topish, ya'ni tasavvur sifatlarini pasayib ketishiga sabab bo'larkan. Liderlikka intilish, yetakchilik sifatleri ortgani sari o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyati pasayib borishi kuzatildi.

«O'zini chetga tortish» va «So'zlarni ishlatish» shkalasining korrelyatsion natijasi ( $r=-0,191$ ;  $p\leq 0,01$ ) bo'lib, ularning orasida ishonchli bog'liqlik aniqlandi. O'quvchilarning ijtimoiy muhitdan o'zini chetga tortishi predmetni ishlatgan holda takrorlanmas so'zlarni ko'plab ishlatish tafakkurining susayishiga olib kelishini ko'rsatdi.

«O'zini chetga tortish» va «Vaziyatlarning natijasi» shkalasining korrelyatsion natijasi ( $r=0,152$ ;  $p\leq 0,05$ ) bo'lib, ularning orasida ishonchli bog'liqlik aniqlandi. O'quvchilarning o'zini chetga tortish yuqori bo'lishi vaziyatlarning gipotetik natijalarini keltirib o'tish tafakkurining pasayishiga sabab bo'lishi kuzatildi. Ijtimoiy muhitdan o'zini chetlashtirishi o'quvchilarning qobiliyatlarini namoyon etmasligiga

olib keladi.

